



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	



QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Yusupova Jamila Karamatdinovna

University of Innovation Technologies (Nukus sh.) Moliya va

iqtisodiyot kafedrası dotsenti v.b., PhD

E-mail: jamilayusupova226@gmail.com

Annotatsiya. Global resurslar tanqisligi sharoitida qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar, jumladan energiya, mineral va uglevodorod resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Sun'iy intellekt, yashil obligatsiyalar platformalari hamda tokenizatsiya mexanizmlarining resurslar aylanmasini nazorat qilish va ekologik investitsiyalarni jalb etishdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: moliyaviy texnologiyalar, qayta tiklanmaydigan resurslar, yashil moliya, blokcheyn, sun'iy intellekt, tokenizatsiya.

Аннотация. Освещены роль и значение современных финансовых технологий в эффективном и рациональном использовании невозобновляемых природных ресурсов, включая энергетические, минеральные и углеводородные ресурсы, в условиях глобального дефицита ресурсов. Проанализирована роль искусственного интеллекта, платформ «зеленых» облигаций и механизмов токенизации в контроле оборота ресурсов и привлечении экологических инвестиций.

Ключевые слова: финансовые технологии, невозобновляемые ресурсы, зеленое финансирование, блокчейн, искусственный интеллект, токенизация.

Abstract. The role and significance of modern financial technologies in the efficient and rational use of non-renewable natural resources, including energy, mineral, and hydrocarbon resources, under conditions of global resource scarcity are examined. The contribution of artificial intelligence, green bond platforms, and tokenization mechanisms to resource turnover monitoring and the attraction of environmentally sustainable investments is also analyzed.

Keywords: financial technologies, non-renewable resources, green finance, blockchain, artificial intelligence, tokenization.

KIRISH

Ma'lumki, XXI asrning uchinchi o'n yilligiga kelib insoniyat global iqtisodiy o'sish hamda tabiiy resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi muhim muvozanat masalasiga duch kelmoqda. Xususan, tadqiqotlar uglerod chiqindilarini **2050-yilga** kelib moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish, energiya o'tishini jadallashtirish hamda institutsional sifatni oshirish orqali kamaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi [1]. Neft, tabiiy gaz, ko'mir va noyob metallar kabi qayta tiklanmaydigan resurslarning yalpi iste'moli yuqori darajada saqlanib qolayotgan sharoitda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi vazifalarni samarali hal etishda moliyaviy texnologiyalar ekotizimi muhim transformatsion omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki moliyaviy texnologiyalar kapital oqimlarini optimallashtirish, resurslarni qazib olish, taqsimlash va iste'mol qilish zanjirida shaffoflikni ta'minlash hamda samaradorlikni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishda moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati va o'rnini o'rganishga bag'ishlangan turli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarda qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida turli rivojlanish ssenariylariga yo'naltirilgan davlat dasturlarini oldindan ishlab chiqish tavsiya etilgan [2]. Bundan tashqari, boshqa tadqiqotlarda



yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarining moderatsiya va o'zaro ta'sir mexanizmlari moliyaviy texnologiyalarning barqaror yashil iqtisodiyot rivojiga qo'shadigan ekologik hissasini kuchaytiruvchi "katalizator" vazifasini bajarishi ta'kidlangan. Bu esa moliyaviy texnologiyalarga asoslangan yashil iqtisodiy siyosat iqlim o'zgarishini yumshatish uchun milliy va institutsional salohiyatni oshirish imkonini berishini ko'rsatadi [3].

Yana boshqa tadqiqotlarda moliyaviy texnologiyalar sanoati haqida qisqacha ma'lumot berilgan, bugungi kundagi turli moliyaviy kompaniyalar faoliyati tavsiflangan hamda ularning an'anaviy moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi subyektlardan farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy texnologiyalarning iste'molchilarga taqdim etadigan imkoniyatlari asoslab berilgan va moliyaviy xizmatlar sanoatini tartibga solish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan [4]. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlarda qayta tiklanmaydigan resurslarni tejash zarurati o'rganilgan. Xususan, innovatsiyalarning korxonalar hamda mamlakat miqyosida resurslarni tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan [5]. Manbalarda qayd etilishicha, qayta tiklanmaydigan resurslar yer ostida joylashgan va iste'mol qilinganidan so'ng tabiiy ravishda qisqa muddat ichida qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar hisoblanadi. Shunga ko'ra, qayta tiklanmaydigan resurslarning asosiy namunalari sifatida neft, ko'mir va tabiiy gaz keltirilgan bo'lib, ular energiya ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Jumladan, qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishda moliyaviy texnologiyalarning o'rnini tadqiq etishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qayta tiklanmaydigan resurslar aylanmasini optimallashtirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar vositalari quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

blokcheyn va ta'minot zanjiri shaffofligi. Qayta tiklanmaydigan resurslar (nodir metallar yoki neft) qazib olingan joyidan yakuniy iste'molchiga yetib borgunga qadar murakkab ta'minot zanjiridan o'tadi. Blokcheyn texnologiyasi orqali har bir barrel neft yoki tonna mineralning raqamli pasporti yaratiladi. Bu esa noqonuniy qazib olish va kontrabanda holatlarining oldini olishga xizmat qiladi, logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda yoqilg'i va energiya sarfini tejash imkonini beradi. Shuningdek, resurslar isrofini monitoring qilish tizimi orqali uni minimal darajaga tushirish imkoniyatini yaratadi.

sun'iy intellekt va risk-menejment. Moliyaviy texnologiyalar platformalariga integratsiya qilingan sun'iy intellekt algoritmlari global bozorlardagi resurslar narxlari, talab va taklif dinamikasini real vaqt rejimida tahlil qiladi. Bashoratli tahlil yordamida korxonalar resurslarni ortiqcha xarid qilishning oldini oladi. Ombordagi xomashyo zaxiralarini moliyaviy ssenariylarga muvofiq aniq boshqarish orqali resurslarning "muzlab qolishi" holatlarining oldi olinadi.

yashil aktivlar tokenizatsiyasi. Tokenizatsiya real aktivlar, ya'ni ma'lum miqdordagi tabiiy gaz yoki oltin zaxiralarini raqamli tokenlarga aylantirishni anglatadi. Ushbu jarayon kichik investorlar uchun ham resurs bozorlariga kirish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, resurslarni tejash texnologiyalariga ega loyihalarni to'g'ridan to'g'ri yoki kraudfanding mexanizmlari orqali moliyalashtirish imkonini beradi.

smart-kontraktlar va yashil obligatsiyalar. Kompaniyalarning atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlari avtomatlashtirilgan moliyaviy texnologiyalar platformalari orqali baholanadi. Aqlli kontraktlar resurslarni qayta ishlovchi korxonalarga ekologik me'yorlarga rioya qilingan taqdirda investitsiya mablag'larini avtomatik ravishda yo'naltirish imkonini beradi.

Shularga asosan, qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishda moliyaviy texnologiyalarning o'zni **1-jadvalda** tavsiflangan.

1-jadval

Qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishda moliyaviy texnologiyalarning o'zni

Instrumentlar	Qayta tiklanmaydigan resurslarga ta'siri	Iqtisodiy samaradorlik natijalari
Blokcheyn	Resurslar harakatini to'liq va shaffof nazorat qilish	Tranzaksiya va logistika xarajatlarini 15–20 foizgacha kamaytirish
Sun'iy intellekt	Talabni aniq bashorat qilish va ortiqcha iste'molni cheklash	Resurslar isrofi hamda ombor zaxiralarini optimallashtirish
Smart-kontraktlar	Yashil obligatsiyalar majburiyatlari bajarilishini avtomatlashtirish	Yashil loyihalarga xalqaro kapital oqimini tezlashtirish



1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda uglevodorod va mineral xomashyo bazasidan oqilona foydalanish vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan ma'lumotlar qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishda moliyaviy texnologiyalar samarali iqtisodiy va boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ularning qo'llanilishi resurslardan foydalanish jarayonlarining shaffofligi, samaradorligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, blokcheyn texnologiyasi resurslar harakatini to'liq va shaffof kuzatish imkonini yaratib, ta'minot zanjiridagi ma'lumotlarning ishonchililigi ta'minlaydi. Bu esa vositachilik xarajatlarini qisqartirish, tranzaksiyalarni tezlashtirish hamda logistika xarajatlarini o'rtacha **15–20 foizgacha** kamaytirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt esa talabni yuqori aniqlikda bashorat qilish orqali resurslardan ortiqcha foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi. Natijada ishlab chiqarish va ombor zaxiralari optimallashtiriladi, resurslar isrofi kamayadi hamda korxonalarning operatsion xarajatlari pasayadi. Smart-kontraktlar esa yashil obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning avtomatik ravishda bajarilishini ta'minlab, inson omili bilan bog'liq xatolar va kechikishlarni kamaytiradi. Bu esa investorlar ishonchini oshiradi, yashil moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini kuchaytiradi hamda ekologik loyihalarga xalqaro kapital oqimini jadallashtiradi. Shu bois moliyaviy texnologiyalarni qayta tiklanmaydigan resurslarni boshqarish tizimiga keng joriy etish resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqib, tog'-kon va energetika sanoatiga moliyaviy texnologiyalar yechimlarini joriy etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

"Yashil moliya" milliy platformasini yaratish. Tabiiy resurslarni qazib oluvchi yirik korxonalar tomonidan chiqariladigan yashil obligatsiyalarni joylashtirish va monitoring qilish tizimini to'liq raqamlashtirish.

Resurslar hisobini blokcheyn tizimiga o'tkazish. Eksport qilinadigan va ichki bozorda iste'mol qilinadigan qayta tiklanmaydigan resurslar harakatini nazorat qiluvchi milliy tarqatilgan reyestr tizimini joriy etish. Bu esa soliq bazasining shaffofligini oshirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy globallashtiruv va ekologik muammolar sharoitida moliyaviy texnologiyalar nafaqat bank xizmatlarini takomillashtiruvchi vosita, balki barqaror rivojlanishni ta'minlovchi strategik drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Qayta tiklanmaydigan resurslarning cheklanganligi sharoitida moliyaviy texnologiyalar kapitalni samarali taqsimlash, resurslar zanjirida shaffoflikni ta'minlash hamda energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu asosda, raqamli moliyaviy instrumentlarni resurslarni boshqarish tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan davlatlar kelgusida ham global iqtisodiy raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, moliyaviy texnologiyalar qayta tiklanmaydigan resurslardan oqilona foydalanishda resurslar harakati shaffofligi va nazoratini kuchaytiradi, xarajatlarni optimallashtirish hamda resurslar isrofini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, yashil investitsiyalar uchun qulay moliyaviy muhitni shakllantirib, barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Wei S., Wen J., Saleem H. (2026). *The financial technological innovation, renewable energy innovation and the resource rents–institutional quality nexus: a paradigm shift in economic growth and sustainable development in G7 economies.* // *Front. Environ. Sci.* 14:1762970. DOI: 10.3389/fenvs.2026.1762970.
2. Кадышева О.В. Невозобновляемые природные ресурсы: теория рынка. // *Вестник ФА*, № 1, 2008. – С. 167.
3. Kashif M., Ullah A., Ullah S. et al. *Financial technology (FinTech) and green economy synergies for climate resilience and net-zero goals: evidence from G20 countries.* // *Financ. Innov.*, 12, 95 (2026). <https://doi.org/10.1186/s40854-026-00912-1>.
4. Жиянова Н.Э. Финансовые технологии и их влияние на финансовые рынки. // *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali*, 3/2022, may–iyun (№ 00059).
5. Черкасов М.Н. Необходимость инновационных изменений в области материального производства с целью экономии невозобновляемых ресурсов. // *Актуальные вопросы экономических наук*, 2013. – С. 226.
6. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/esg/non-renewable-resource/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>